

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**XOLMIROV BEGALI ABDIXAMIDOVICH**

**ELEKTRON VALYUTA MUNOSABATLARINI  
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Xolmirov Begali Abdixamidovich**

Elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solish.....

**Xolmirov Begali Abdixamidovich**

Legal regulation of electronic currency relations .....

**Холмиров Бегали Абдихамидович**

Правовое регулирование электронных валютных отношений.....

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**XOLMIROV BEGALI ABDIXAMIDOVICH**

**ELEKTRON VALYUTA MUNOSABATLARINI  
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu852 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://karsu.uz/uz/автореферат/>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yusupov Sardorbek Bahodirovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent.

**Rasmiy opponentlar.**

**Tursunov Axtam Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Daumenov Berdaq Aymuratovich**  
yuridik fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot.**

**Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “2”-noyabr soat \_\_: \_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 742012, O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Ch. Abdirova ko‘chasi 1-uy, Tel: +99-861-223-60-78, Email: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( -raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 742012, O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Ch.Abdirova ko‘chasi 1-uy, Tel: +99-861-223-60-78).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “19” oktabrda tarqatildi.

(2024-yil “19” oktabrdagi 7-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Ye.D.Kutibayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**G.M.Berdimuratova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori, dotsent

**Z.A.Reymova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda elektron valyuta bilan to'lovlarning amalga oshirishi, kriptovalyutalar evaziga xizmat ko'rsatish, insonlar tomonidan bir-biriga o'tkazishda chegaralarning yo'qligi va insonlar tomonidan foydalanishda fiat pullarga qaraganda qulayligi elektron valyutalarning ommalashib borayotganidan dalolat bersa-da, markazlashmagan elektron valyutalarning biror davlat tomonidan boshqarilmasligi barcha mamlakatlar uchun ushbu sohani tartibga solish zaruriyati vujudga keltiradi. Ushbu elektron valyutalarning soxta ko'rinishini chiqarishning imkoni yo'qligi sababli, boshqaruv tizimiga ega bo'lmasa-da, ushbu soha butun dunyo bo'ylab rivojlanmoqda. Birgina "Binance" kriptovalyuta ayirboshlash birjasining bir kunlik pul aylanmasi 15 mlrd AQSh dollariga teng.

Jahon yalpi ichki mahsulotining 95 foizdan ortig'ini tashkil etuvchi 114 mamlakat Markaziy bankning raqamli valyutalari (MBRV)ni o'rganmoqda. 2020-yil may oyidan 35 mamlakat MBRVni ko'rib chiqmoqda. 60 ta mamlakatdan iborat yangi eng yuqori darajali mamlakatlar tadqiqotni ishlab chiqish, tajriba yoki ishga tushirish bosqichida<sup>1</sup>. Bugungi kunda jahon ilm-fanida elektron valyutalar, ularning huquqiy maqomi, ushbu vositalarga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etish jarayonida ishtirok etadigan subyektlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarlik doirasi, investorlarning huquqlarini himoya qilish va ularning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish qoidalarini belgilash hamda iqtisodiy tizimning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida elektron valyuta munosabatlarini tartibga solishdagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yo'lida muhim qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qarorida "investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan, mayning (turli kripto-aktivlarda yangi birliklar va komissiya yig'implari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyat), smart-kontrakt (raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash, shuningdek, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish" belgilangan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" nomli 1-ustuvor yo'nalishning 4-maqsadida "Davlat budjeti

---

<sup>1</sup> Atlantik konsul: <https://www.atlanticcouncil.org/cbdctracker/#:~:text=In%202023%2C%20over%2020%20countries,start%20a%20pilot%20next%20year> (murojaat vaqti: 2023.05.02).

xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish”da “Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish” masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, “Zamonaviy moliyaviy xizmatlar, operatsiyalar va texnologiyalarni (fintex) hamda naqd pulsiz to‘lovlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish” vazifasi belgilangan bo‘lib, huquqshunoslik fani nuqtayi nazaridan bu sohani tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi (2019), “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi (2019), “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi (2019) Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo‘lishi” qoidalari (ro‘yxat raqami 3231, 2020-y.), O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2022-yil 15-avgustda ro‘yxatdan o‘tgan “Kripto-birjada kripto-aktivlar savdolarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami 3379), “Kripto-do‘kon faoliyatini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i, 2022-yil 31-oktabrda ro‘yxatdan o‘tgan (ro‘yxat raqami 3395) va boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonda bevosita elektron valyuta va u bilan bog‘liq jarayonlarning huquqiy jihati, ularni tartibga solish, xorijiy davlatlarning tajribalari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida hali o‘rganilmagan.

Respublikamiz olimlari Bilolxo‘jayeva Sh.B., Xakimov G.T., A.Li, S.B.Yusupov, Axmedova M.T., Urmonov J.J., Bozorov A.A., Anarkulov A.D., Umaraliyev A.M., Abdurasulov A.A., E.Hojiyev, O.Kamalov, B.Artikov, I.R. Rustambekov va S.S.Gulyamov, O.S. Narziyev, F.R. Gafurov, A. Yakubov, O. Okyulov, M. Rahmonova va boshqalarning ilmiy ishlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari va darsliklarida elektron valyutalarning ayrim jihatlarini tadqiq qilgan.

MDH davlatlarida K.B.Razdorojniy, G.T.Papaskua, I.A.Nikulina, D.A. Selin, F.P.Orlov, Y.Y.Barakina, D.Lomovsev, I.Svetkova, S.Saksonova, I. Kuzmina-Merlino va boshqa olimlar bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijlik olimlardan O. Korhonen, J. Rantala, K.H. Wiese-Hansen, V.A. Fiskerstrand, S. Michael, A.H. Nathan, X. Xando, M. Sirajul Islom, Shao Gao, M. Pravdiuk, J. Shabatuk, A. Mikhaylishin, M. Chudinovskikh, V. Sevryugin, Chris Brummer, Ernest Gnan, Donato Masciandaro, M. Dodgson, D. Gann, I. Wladawsky-Berger, N. Sultan, G. George, A. Raymond, D. Nikol, K. Yuliya, A. Väkeväinen, A. Taipale kabi xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan va muhim ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Iqtisodchi olimlardan E. Xoshimov, F.B. Babkin, L.A. Bragin, V.I. Tarasov,

Y. Veshkin, N.T. Muxsinov, K. Koreshenko, M. Kristofer, J. Wilson., B. Mishel kabi olimlarning ilmiy ishlarida ham elektron valyutalar va uning huquqiy asoslari bilan bog‘liq ilmiy-amaliy jihatlar tahlil qilingan<sup>1</sup>.

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan ayrim tahliliy ma’lumotlar mavjud bo‘lsa-da, yurtimizda elektron valyuta munosabatlari, ularni tartibga solish va nazorat qilish, kripto-birjalar, kripto-mayning, kripto-do‘kon, markazlashgan va markazlashmagan pullarning konvertatsiya masalalari, huquqiy mohiyati, soha subyektlarining huquq va majburiyatlariga oid ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Yurtimizda elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solish, mavjud muammolarni ilmiy tahlil qilish, qonunchilik tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

- elektron valyuta tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish;
- elektron valyutalarning turlari va o‘ziga xos xususiyatlarini tasniflash;
- O‘zbekistonda elektron valyuta munosabatlarining shakllanishi hamda rivojlanishini tadqiq etish;

- O‘zbekistonda elektron valyuta munosabatlari bo‘yicha huquqiy amaliyot natijalarini tahlil etib qonunchilikka taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solishni xorijiy tajriba asosida o‘rganish;

- O‘zbekistonda elektron valyuta munosabatlarining huquqiy tizimidagi muammolarni o‘rganish;

- O‘zbekistonda elektron valyuta munosabatlarining huquqiy tizimini takomillashtirish masalalari bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish.

**Tadqiqot obyekti** O‘zbekiston Respublikasida elektron valyuta va uni huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** elektron valyutaga oid ilmiy-nazariy va huquqiy qarashlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy davlatlar qonunchiligi va tajribasi, ularni tartibga solish kabi masalalardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tizimli yondashuv, tarixiylik, mantiqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik tahlil, umumlashtirish, formal-yuridik va sotsiologik so‘rovnomalar kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ma’lum bir muddatda mobil ilovalarida tuzatish ishlari amalga oshiriladigan bo‘lsa, ijtimoiy tarmoqlarda yoki rasmiy saytida profilaktik tadbir

---

<sup>1</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

haqida e'lon berishlari shartligi asoslantirildi;

elektron valyutalarni reklama qilishni tartibga solish maqsadida xizmatlar provayderlarining nomlanishi yoki ramzlarida “davlat”, “hukumatga oid”, “milliy”, “O‘zbekiston” hamda O‘zbekiston Respublikasi shaharlarining nomlarini to‘liq yoki qisqartirilgan shaklda, istalgan tilda va har qanday ko‘rinishda ishlatilishi taqiqlanishi asoslantirildi;

kripto-do‘kon faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida shartnoma yozma yoki og‘zaki shaklda, shu jumladan elektron hujjat ko‘rinishida yoki oferta va aksept orqali elektron shaklda tuzilishi mumkinligi asoslantirildi;

kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyati bilan shug‘ullanish maqsadida litsenziya olish uchun berilgan arizani ko‘rib chiqish, litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilishda kalendar kuni bo‘yicha emas ish kuni bo‘yicha muddatni belgilash kerakligi asoslantirildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

– tadqiqot davomida tahlillarga tayanib elektron valyuta (bu elektron tizim doirasida ishlaydigan yoki o‘z hisob birligiga ega bo‘lgan to‘lov vositasi) va kriptovalyuta (mulk hisoblanib, ma‘lumotlarning taqsimlangan reyestri (blokcheyn)da qiymat birligi mavjud bo‘lgan, boshqa kriptovalyutaga yoki pulga konvertatsiya qilinadigan, shifrlangan elektron valyutaning turi) tushunchalariga mualliflik ta‘rifi berildi;

– O‘zbekistonda smart-kontrakt va eskrou tizimlaridan foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan;

– elektron valyuta munosabatlaridagi ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilish yuzasidan xorijiy tajribalar asosida “O‘zbekiston kripto-aktivlari savdosi assotsiatsiyasi” institutini tashkil qilish taklifi berildi;

– kripto-aktivlar aylanmasi maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishini hisobga olib O‘zbekistonda elektron valyutani rivojlantirish, blokcheyn texnologiyalaridan noqonuniy maqsadlarda foydalanganlik uchun javobgarlik choralari aniq belgilab olinishini hisobga olib, “Elektron valyutalar va blokcheyn-texnologiyalar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilish bo‘yicha taklif ishlab chiqildi;

– O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha taklif berildi;

– O‘zbekiston Respublikasi hududida kripto-aktivlarni milliy yoki xorijiy valyutaga sotish va sotib olish hamda kripto-aktivlarni boshqa kripto-aktivlarga ayirboshlash bo‘yicha operatsiyalarini xizmatlar provayderlaridan tashqarida amalga oshirish tartibini joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalari ishonchliligi.** Ishda qo‘llangan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingan, xorijiy va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti nuqtayi nazaridan o‘rganildi, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazildi, statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilindi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlandi hamda amaliyotga joriy qilindi.



### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalardan ma'muriy va moliya huquqi sohasida tadqiqot ishlarini olib borishda, Moliya huquqi, Ma'muriy huquq va Ma'muriy sud ish yurituvi kabi fanlarni o'qitish jarayonida hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati elektron valyuta faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek, elektron valyuta sohasidagi vakolatli organlar amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Tadqiqot ishi bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan quyidagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda va takomillashtirishda foydalanilgan:

to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ma'lum bir muddatda mobil ilovalarida tuzatish ishlari amalga oshiriladigan bo'lsa, ijtimoiy tarmoqlarda yoki rasmiy saytida profilaktik tadbir haqida e'lon berishlari kerakligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 18-apreldagi 8/3-son qarori bilan tasdiqlangan "To'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi Nizomning (ro'yxat raqami 3431, 2023-yil 5-may) ishlab chiqilishida foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023 - yil 20-oktabrdagi 38-21/1436-sonli ma'lumotnomasi*). Mazkur takliflarning Normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topishi to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

elektron valyutalarni reklama qilishni tartibga solish maqsadida xizmatlar provayderlarining nomlanishi yoki ramzlarida "davlat", "hukumatga oid", "milliy", "O'zbekiston" hamda O'zbekiston Respublikasi shaharlarining nomlarini to'liq yoki qisqartirilgan shaklda, istalgan tilda va har qanday ko'rinishda ishlatilishi taqiqlanishiga oid taklif "Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmat provayderlar faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizomning 13-bandini tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi yuridik bo'limi, 2022 - yil 20-dekabr kunidagi 02/13 - 454 - sonli dalolatnomasi*). Ilmiy natijalardan foydalanish ushbu idoraviy normativ-huquqiy hujjatda xizmatlar provayderlarining nomlanishi yoki ramzlarining tashkil qilinishi tartibining belgilanishiga xizmat qilgan;

kripto-do'kon faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida shartnoma yozma yoki og'zaki shaklda, shu jumladan elektron hujjat ko'rinishida yoki oferta va aksept orqali elektron shaklda tuzilishi kerakligi bo'yicha berilgan taklif O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2022-yil 29-sentabrdagi "Kripto-do'kon faoliyatini amalga oshirish qoidalari"ning 22 – bandini ishlab chiqilishida foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi yuridik bo'limi, 2022-yil 20-dekabr kunidagi 02/13 - 454 - sonli dalolatnomasi*). Ilmiy natijalardan foydalanish ushbu idoraviy normativ-huquqiy hujjatdagi kripto-do'konning elektron platformasida kripto-aktivlarni sotish va sotib olish bo'yicha shartnoma aksept tarzida elektron shaklda tuzilishiga xizmat qilgan;

kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida litsenziya olish uchun berilgan arizani ko'rib chiqish, litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishda kalendar kuni bo'yicha emas ish kuni bo'yicha muddatni belgilash kerakligi to'g'risidagi taklif "Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmat provayderlar faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizomning 19-bandini ishlab chiqilishida foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi yuridik bo'limi, 2022-yil 20-dekabr kunidagi 02/13 - 454 - sonli dalolatnomasi*). Ilmiy natijalardan foydalanish kripto-aktivlar aylanmasi provayderlar faoliyatini litsenziyalashdagi arizalarni ko'rib chiqishda muddatlarning aniq belgilanishiga hamda noqulayliklar keltirib chiqarmasligiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarida 4 ta tezis (2 ta respublika va 2 ta xalqaro konferensiyalarda) va 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xalqaro jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning hajmi 134 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan-texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya ishining oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishi rejasi bilan o'zaro bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari, ushbu natijalarning ishonchligi, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi kabi masalalar yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Elektron valyutalar rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlanib, uch paragrafni o'z ichiga oladi. Ushbu bobda elektron valyuta tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, turlari, o'ziga xos xususiyatlari va elektron valyuta munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi tadqiq etilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi "*Elektron valyuta tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda elektron valyutalarning rivojlanishi tahlil etilib, elektron valyuta tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari bir qancha olimlar, normativ-huquqiy hujjatlar va bir qancha yetakchi tashkilotlarning fikrlari asosida o'rganib elektron valyuta va kripto valyuta tushunchalariga mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan.

Muallif Bilolxo'jayeva Sh.B., Xakimov G'.T., A.Li, S.B.Yusupov, Axmedova

M.T., Urmonov J.J., Bozorov A.A., Anarkulov A.D., Umaraliyev A.M., Abdurasulov A.A., E.Hojiyev, O.Kamalov, B.Artikov, I.R. Rustambekov va S.S.Gulyamov, O.S. Narziyev, F.R. Gafurov, A. Yakubov, O. Okyulov, M. Rahmonova, S. Grohe, J. Frankenfeld, R. Grinberg, K.V. Tu, M.W. Meredith, P. Farran, F. Tomas, C. Brummer, S. Nakamoto kabi olimlarning qarashlari hamda yetakchi tashkilotlar (Yevropa parlamenti va kengashi, Germaniya Moliyaviy xizmatlar nazorati, Kanadaning Korporativ moliya instituti, Moorwand tashkiloti, Germaniya moliyaviy konglomerati Deutsche banki)ning fikr-mulohazalari, tadqiqotlarini tadqiq etgan holda quyidagi xulosaga keladi, elektron valyuta keng tushuncha bo‘lib, naqdsiz pul, kriptovalyuta va MBRVlarni o‘z ichiga oladi. Ko‘plab tortishuvlarga sabab bo‘layotgan virtual valyuta va kriptovalyutalarni qabul qilgan davlatlarda atalishi turlicha bo‘lsa-da, lekin elektron tizimdagi bir xil hisob birligiga nisbatan qo‘llanishi asoslantirilgan.

Dissertantning fikricha, innovatsiya va texnologiyalar elektron valyutalarga nisbatan qiziqishlarning ortishiga olib kelmoqda. Kriptovalyuta, raqamli valyuta yoki virtual valyutalar deb nomlanuvchi elektron valyutalarning yangicha ko‘rinishlarini huquqiy va boshqa tomonlarini tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotchi O‘zbekistondagi bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarga (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Mulkchilik to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-sonli (2018) qaror, “Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami 3380, 2022-y.) va “O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro‘yxatdan o‘tkazish va muomalaga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 3397, 2022-y.)) murojaat qilib kripto-aktiv tushunchasiga berilgan ta‘rifda “mulkiy huquq”, “egasiga ega” va “tasarruf etish huquqi” degan so‘z birikmalari mulkka nisbatan foydalanishni cheklab, aynan unga egalik qilish va tasarruf etish huquqini ta‘kidlab ko‘rsatgan degan xulosaga kelgan.

Dissertant doktrinal va qonunchilikda keltirilgan ta‘riflardan kelib chiqqan holda **elektron valyuta** – elektron tizim doirasida ishlaydigan yoki o‘z hisob birligiga ega bo‘lgan to‘lov vositasi, **kriptovalyuta (kripto-aktiv)** – mulk hisoblanib, ma‘lumotlarning taqsimlangan reyestri (blokcheyn)da qiymat birligi mavjud bo‘lgan, boshqa kriptovalyutaga yoki pulga konvertatsiya qilinadigan, shifrlangan elektron valyutaning turi, ta‘riflarini ilgari suradi.

Dissertatsiya birinchi bobining “*Elektron valyutalarning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlili*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida elektron valyutalarning tasniflash mezonlari, turlari tahlil qilinib tasniflangan.

Elektron valyuta iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda muomalaga kiritilganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Lekin uning turlari va shakllari axborot-texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida kengayib boryapdiki, uning rivojlanish tendensiyasiga huquqiy baho berish har jihatdan maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi elektron valyutalarning turlari va xususiyatlarini tadqiq qilishda bir qancha xorijlik va o‘zbekistonlik olimlar (M. Dodgson, D. Gann, I. Wladawsky-

Berger, N. Sultan, G. George, A. Yakubov, F. Orlov, Joel Agbo) bilan bahs-munozaraga kirishgan hamda elektron valyutalarning turlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagicha tasniflagan.

### 1.2.3-jadval.

Tasniflash mezonlari		Turlari	Misollar
Boshqaruv shakliga ko'ra		Markazlashgan	Naqdsiz pul, MBRV
		Markazlashmagan	Kriptovalyutalar (Bitkoin, Altkoinlar)
Xususiyatiga ko'ra		Shaxsiy elektron pullar	WMY, Webmoney
		To'lov vositasi sifatida foydalaniladi va naqd pulga to'g'ridan to'g'ri konvertatsiya qilinadi	Bitkoin, Ethereum, Ripple
		Faqat internet o'yinlarida va virtual foydalaniladi (to'lov vositasi sifatida foydalanilmaydi va naqd pulga to'g'ridan-to'g'ri konvertatsiya qilinmaydi)	Enjin (ENJ), TRON (TRX), Decentraland (MANA)
		Bozor sharoitidan qat'i nazar barqaror qiymatni saqlaydi	Stabilkoinlar: USDT, USDC, BUSD
		Ma'lum bir loyihani amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish uchun mavjud axborot tizimi orqali smart shartnoma bilan taqdim etiladigan token	VeChain (VET) NEO Kucoin Shares Status Network Token, Bancor Network Token
Emitentiga ko'ra	Markaziy bank tomonidan chiqariladigan	Naqdsiz pul, MBRV	
	Kriptovalyutalar	Mayning qilinadigan	Bitkoin (BTC) Monero (XMR) ZCash Ravencoin (RVN)
		Ma'lum bir jamoa tomonidan sotiladigan	Status Network Token, Bancor Network Token

Birinchi bobning uchunchi paragrafi “Elektron valyuta munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi” masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda dissertant elektron valyuta munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi bo'yichabir qancha olimlarning tadqiqot va ilmiy adabiyotlari (Raymond A., Stella Sh., Benet W., Nikol D., Benét J., Mishel B., Yuliya K., Siyenna W., Sandy M., Mark M., Kevin M., S.Nakamoto, Ueyn D.)ni o'rgangan holda elektron valyuta munosabatlarining shakllanishiga ushbu raqamli moliyaviy tizimlarning dinamikasi va xususiyatlarini shakllantiruvchi **texnologik, iqtisodiy, huquqiy** va **ijtimoiy** omillar ta'sir qilgan, natijada esa ularning tez o'sishi va ortib borayotgan mashhurligi

elektron valyutalarning *me'yoriy-huquqiy baza, soliq oqibatlari va potensial huquqiy xavflari* bilan bog'liq bir qator huquqiy savollar hamda muammolarni keltirib chiqardi degan xulosaga keladi.

Jumladan, huquqiy omillar tahlilida aniq me'yoriy-huquqiy bazaning mavjud yoki mavjud emasligini elektron valyutalarning rivojlanishiga katta ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

Elektron valyuta munosabatlarining shakllanishiga texnologik, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy omillar ta'sir qilgan bo'lib, texnologik taraqqiyot, iqtisodiy mulohazalar, qonunchilik asoslari va jamiyatdagi munosabatlar elektron valyutalarning rivojlanishi va qabul qilinishini shakllantirgan degan fikrni ilgari suradi.

Tadqiqotning **“Elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Elektron valyuta munosabatlarining huquqiy asoslari tahlili, huquqiy amaliyot natijalari tadqiqi va elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solishda xorijiy tajriba tahlil qilingan.

Ushbu bobning *“Elektron valyuta munosabatlarining huquqiy asoslari tahlili”* deb nomlangan birinchi paragrafida O'zbekistonda elektron valyutalarni huquqiy tartibga solish yaqin yillardan boshlab amalga oshirilayotganligi, shuning uchun ham elektron valyuta, naqdsiz pul, kriptovalyuta, kripto-aktiv, virtual valyuta, blokcheyn texnologiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tarqoq ekanligini ta'kidlaydi. Bu holat ayrim tushunmovchiliklarga va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin degan xulosaga kelib, ularni unifikatsiya qilish taklifini ilgari suradi.

Tadqiqotchi tomonidan 2023-yilda 740 nafar ishtirokchilar o'rtasida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazilib, unga ko'ra “O'zbekistonda elektron valyutalarning huquqiy asoslarini yetarlicha emas” (71,3 %), “Elektron valyutaning tashkiliy, institutsional mexanizmlarini rivojlantirishga zarurat bor” (57,4 %), “To'g'ri yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyaviy qo'llanmalar yaratish” (9,3 foiz) kabi takliflari elektron valyuta munosabatlarini rivojlantirish va huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari sifatida ilgari surilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Elektron valyuta munosabatlari bo'yicha huquqiy amaliyot natijalari tadqiqi”* deb nomlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'zgarar mulkini talon-toroj qilish haqida 2020-yilda ichki ishlar organlariga 965 ta, 2021-yilda 1 601 ta va 2022-yilda 1 850 ta murojaatlar kelib tushgan. 2022-yil 7 oyi davomida bank plastik kartalaridan pul mablag'larini firibgarlik va o'g'rilik yo'li bilan talon-toroj qilinganligi holati yuzasidan jami 1 812 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib, fuqarolarga, 12 mlrd 165,5 mln so'm miqdorida moddiy zarar yetkazilgan.

Biroq 2024-yilgacha milliy qonunchiligimizda bunday taqiqlar uchun javobgarlik aniq norma bilan belgilanmagan. Buning oqibatida bu turdagi ayrim qilmishlar Jinoyat kodeksining 185<sup>2</sup>-moddasi (*Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish*), 168-moddasi (*Firibgarlik*), 177-moddasi (*Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish*) yoki 190-moddasida (*Faoliyat bilan litsenziyasiz yoki ruxsat etish xususiyatiga ega*

*hujjatsiz yoxud xabarnoma yubormasdan shug‘ullanish*) nazarda tutilgan jinoyatlar bilan malakalanmoqda. Mazkur jinoyatlar bilan yuritilayotgan ish hujjatlarini o‘rganish natijalari bu boradagi amaliyotda muammoli hamda bahsli masalalar mavjudligini tasdiqlaydi.

Jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kripto valyuta bilan noqonuniy olgan yoki o‘tkazgan subyektlar tegishli tartibda aniqlanganda, ularning elektron hamyonidagi mavjud kripto valyutalarning qayerda saqlanishi, qaytarilishi yoki musodara qilinishi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat mavjud emas hamda mavjud muammoni bartaraf etish bo‘yicha taklif ishlab chiqildi.

Mazkur bobning *“Elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solishda xorijiy tajriba”* deb nomlangan uchinchi paragrafida rivojlangan xorijiy mamlakatlar (*Finlandiya, Yaponiya, AQSh (Alyaska, Kolorado, Kaliforniya, Konnektikut, Luiziana, Meyn, Michigan) Sloveniya, Germaniya, Argentina, Misr va Xitoy*) qonunchiligi amaliyoti va mazkur sohadagi tajribasini o‘rganish asosida ushbu davlatlarda *“Virtual valyutalar shaxs tomonidan to‘lov vositasi sifatida ishlatilishi, elektron shaklda o‘tkazilishi, saqlanishi va almashtirilishi mumkin”* ekanligi asoslantirilgan. Masalan, Finlandiyaning To‘lov tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunining 1-bobi 1-bo‘limi 2-kichik bandida *“Virtual valyutalar – markaziy bank yoki boshqa organ tomonidan chiqarilmagan va qonuniy to‘lov vositasi bo‘lmagan raqamli qiymatni o‘z ichiga olgan aktiv turi bo‘lib, elektron shaklda o‘tkazilishi, saqlanishi va almashtirilishi mumkin”* ekanligi belgilangan.

Dissertant elektron valyuta munosabatlarini tartibga solishda mazkur davlatlarning sohani tartibga soluvchi fundamental qonun-qoidalar va regulyatorning funksiyalarini tahlil qilishga urg‘u berib, ushbu masalalarda tadqiqot olib borgan olimlar (Thomas H. Lee, Matthew S. Erie, A. Väkeväinen, A. Taipale, T. Takaharu, H. Keisuke, Sh. Yuuki, M. Anderson, O. Narziyev, D. Shivdeep, Y. Masayuki, M. Anthony, S. Anshu, Ch. Principato, J. Wheeler, S. Frisbiyelar)ning tadqiqot va ilmiy ishlariga murojaat qilgan.

Rivojlangan davlatlar universitetlari Elektron valyuta munosabatlari kurslarini joriy etish orqali elektron valyutalarning o‘zgaruvchan kuchini tan olishmoqda. Ushbu innovatsion mavzu bo‘lajak yuristlarni rivojlanayotgan raqamli moliyaviy landshaftning huquqiy murakkabliklariga tayyorlashi ta’kidlanadi.

Kurslar kriptovalyutalar atrofidagi me‘yoriy-huquqiy bazalarni o‘rganishi, talabalar ushbu raqamli aktivlarning huquqiy holatini tahlil qilib, egalik qilish va o‘tkazish imkoniyati kabi savollar bilan kurashadilar. Asosiy e’tibor aqlli kontraktlarga, blokcheyn bo‘yicha o‘z-o‘zini bajaruvchi shartnomalarga qaratilgan. Ularning amalga oshirilishi va mumkin bo‘lgan qonuniy tuzoqlarni tushunish bitiruvchilarga mijozlarga xavfsiz va qonuniy bitimlar bo‘yicha maslahat berishga yordam beradi degan fikrlar ilgari surilgan.

Muallif elektron valyuta munosabatlarini tartibga solishda kriptovalyutalardan foydalanish, savdoni tartibga solish uchun butun dunyo bo‘ylab hukumatlar va tartibga solish organlari tomonidan qabul qilingan turli normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib elektron valyutani tartibga solishning uchta: taqiqlash, ruxsat beruvchi va faol modellarini tasniflaydi.

Tadqiqotchi rivojlangan davlatlarning tajribasini o‘rganar ekan, qaysi davlatlarni tanlash va nimalarga e’tibor berishda sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi.

So‘rovnomadagi<sup>1</sup> *“Elektron valyutalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi foydalimi?”* degan savolga respondentlarning **49,2 % “Ha”, albatta, 40,7 % “Qisman”, 10,1 % “Bilmayman” deb javob berishgan.** Bundan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun xorijiy tajribadan foydalanishimiz kerak.

Tadqiqotchi fikricha, O‘zbekistonda elektron valyuta, aynan kriptovalyutalardan foydalanish tor doirani qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan uchinchi bobda elektron valyuta munosabatlarini rivojlantirish konsepsiyasi va “Elektron valyuta va blokcheyn-texnologiyalar to‘g‘risida” Qonunni qabul qilish taklifini ilgari suradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solishdagi muammolar, ularning yechimi va qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlanadi. Ushbu bobda O‘zbekistonda elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solishdagi muammolar tahlili va O‘zbekistonda elektron valyuta munosabatlarini takomillashtirish istiqbollari yoritilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“O‘zbekistonda elektron valyuta munosabatlarini huquqiy tartibga solishdagi muammolar tahlili”* deb nomlangan. Dissertant normativ-huquqiy hujjatlardagi elektron pul va kripto-aktiv tushunchalariga berilgan ta’rifdan ham to‘lov qobiliyatining cheklanganligini, elektron hamyon va kripto hamyon tushunchalariga berilgan ta’rifdan esa ular bir xil funktsiya va xususiyatlarga egaligini ochib bergan.

Ushbu turdagi raqamli aktivlarning huquqiy maqomini aniqlashdagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri bo‘lgan moliyaviy-iqtisodiy kategoriya sifatida kriptovalyutalarni eng to‘g‘ri ilmiy izohlash borasida konsensus mavjud emas.

Elektron valyuta munosabatlarini tartibga solishdagi zid normalar (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi 22-sonli qarorining 63<sup>1</sup> - bandi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832-son qarori 3-bandi) tahlil qilinib, ushbu 2 ta qonunosti hujjatida mayning faoliyatidan foydalanishda iste’mol qilingan elektr energiyasi uchun to‘lovlar belgilangan tarifga nisbatan “bir xil qiymatga ega bo‘lmagan” o‘svuchi koeffitsiyentga muvofiq to‘lanishini ko‘rish mumkin. Bu mayning xizmatidan foydalanuvni subyektlar va tegishli tashkilotlar o‘rtasida turli muammolarni keltirib chiqarishi asoslantirilgan.

